

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



“TASDIQLANMAGAN”

Jizzax davlat pedagogika universitetida

rektori prof. Sh. S. Sharbop

2022 yil “ 30 ”

**TURIZM VA REKREATSIYA GEOGRAFIYASI
FANING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110 000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 60111000 - Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Fan modul kodi:	O'quv yili	Semestr	ECST-Kreditlar
351TVRG04	2022-2023	4	2
Fan/modul turi	Ta'lim tili.		Haftadagi dars soatlari 2
Tanlov fan	o'zbek		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Turizm va rekreatsiya geografiyasi	Ma'ruza: 14 soat Amaliy: 16 soat	30	60
1.			
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Ushbu dasturi "Turizm va rekreatsiya geografiyasi" atamasi mohiyati, hududiy tarqalishi, mezonari, geografik o'rni, mamlakatlardagi tarixiy, tabiiy, madaniy turlarining geografik tarqalishi, geografik o'rni, tabiiy sharoit potentsiali; Hozirgi vaqtidagi iqtisodiy holatning davlatlar turizmi rivojlanishiga ta'siri, O'zbekiston, jahonning-muhim turistik ob'ektlari iqtisodiy geografik subektlari sifatida, respublikamizning turistik ob'ektlari geografik xarakteristikasi, rivojlanirish muammo va istiqbolini o'z ichiga oladi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – hududning "javoxiri" deb tan olingan turistik ob'ektlarning, ya'ni tarixiy, madaniy, tabiiy, arxitektura ob'ektlarining kelib chiqishi tarixi, yo'nalishlari ma'lum davrda bunyod etilgan milliy, tarixiy yodgorliklarning geografik joylashuvi haqida to'laroq bilim berishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga rekreatsion va turistik ob'ektlar haqida ularning o'rganilish tarixi, "Turizm va rekreatsiya asoslari" yosh fan bo'lsada turizm o'rta asrlardan, buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlanganligi, hozirgi hududiy tarqalishi, turlari, iqtisodiyotdagi ahamiyati, zamonaviy turizm turlari haqida ma'lumotlar berish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 14-soat</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1 - modul. "Rekreatsiya geografiyasi" fanining nazariy asoslari.</p> <p>1-mavzu: Kirish. Rekreatsion geografiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari (2 soat).</p> <p>Rekreatsiya sohasidagi tadqiqotlar davrlar mobaynida, ilgari va hozirgi hamda zamonamizdagi olib borilgan ishlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Rekreatsion geografiya XX - asming ikkinchi yarmidan rivojlana boshladi. Mazkur fanning rivojlanishida V.S.Perebrajenskiy, A.A.Mints, P.G.Tsarfiya, I.P.Gerasimov, A.A.Shoshina, A.P.Avisin, A.D.Lebedov va boshqalarning xizmatlari katta. Hududiy rekreatsion tizimlar, turli xil rekreatsion tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi rekreatsion geografiyaning o'rganish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.</p> <p>2-mavzu: Rekreatsion faoliyatning klassifikatsiyasi. O'zbekistonda rekreatsiya resurslarining rivojlanishi (2 soat).</p> <p>Rekreatsion faoliyatning klassifikatsiyasida rekreatsion resurslar tabiiy</p>		

jihattan baholalanib, turlarga ajratiladi hamda ular haqida tushuncha beriladi. O'zbekistonning rekreatsion resurslarining turizm rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Rekreatsion faoliyatning turli shakllari mavjud. Ular cho'milish, piyoda yurish, meva terish, yodgorlik yoki ziyoratgohlarga borish, muzey yoki yarmarkalami tomosha qilish va boshqalar. Bu kabi rekreatsion faoliyat dam oluvchining ixtiyoriga ko'ra amalga oshadi. Rekreatsion faoliyat vazifa bajarishi va texnologiyasiga ko'ra davolanish, sog'lomlashtirish va tanishuv kabilarga ajratiladi.

2 - modul. "Turizm geografiyasi" fanining nazariy asoslari.

1-mavzu: Turizm – tizimi o'rganish ob'ekti sifatida (2 soat).

Turizmning shakllanishi, o'rganish ob'ekti sifatida o'z aksini topadi. Turizm (tourism) terminini birinchi bo'lib 1830 yilda V. Jekmo tomonidan qo'llanilgan edi. Bu tushuncha fransuz tilida «tour», sayohat ma'nosida ishlatilgan. Turizm va turist tushunchalari o'z navbatida bir ma'nodagi tushuncha sifatida qarash noo'rindir. Binobarin, bu termin va tushunchalarga Bem universiteti professorlari Xunziker va Krapflar aniqroq baho beradi. Jumladan, turizm-o'zi yashaydigan joydan boshqa joyga, hududga, mamlakatga, mamlakatidan tashqariga bo'sh vaqtlarida dam olish, sog'lig'ini tiklash, sog'lomlashtirish, mehmonga borish, diniy va ish yuzasidan haq to'lanadigan maqsadlaridagi tashrifdir.

2-mavzu: Turizm moxiyati. Turizm klassifikatsiyasi (2 soat).

Turizmda tasniflash masalasi ushbu fan uchun eng dolzarb masala bo'lib uning nazariy jihatlari, tarqalish qonuniyati, alohida tarzda o'rganiladi. Zamonaviy turizmning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Jumladan, geografik belgilari, turistik oqim yo'nalishi, safar maqsadi, xarakatlanish usuli, turistlarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo'yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

3-mavzu: Xalqaro turizm geografiyasi, tarixi va rivojlanishi (2 soat).

Turizm, Sharq sivilizatsiyasi, Buyuk Ipak yo'li, xalqaro turistik tashkilotlar, tabiiy resurs, muhofaza, xalqaro turizm haqida ma'lumotlar beriladi. Turizm yoki sayyohlikning ilk bor boshlanish davri qadim-qadimlarga borib taqaladi. Kishilarning bir joydan ikkinchi joyga o'tishi yoki borishi ko'p hollarda savdo-sotiq yumushlari, atrof-olamni ko'ra-bilish istagi, hamma ishtirok etoladigan o'qish, diniy va dam olish omillari bilan bog'langan. Qadimgi manbalarda yozilishicha bundan ikki ming yillar oldin (eramizga qadar) misrliklar hayotida sayyohlik ko'ngil ochish va dam olishning odatdagi hodisasi bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda eng qadimgi sayyohlik markazlaridan biri bu Tinch okean minatqasida joylashgan Okeaniya hududi bo'lib hisoblanadi.

4-mavzu: Turizm siyosati asoslari. Yevropa mamlakatlarida xalqaro turizm geografiyasi (2 soat).

Davlatlarning turizm sohasidagi siyosati va hamkorligi ochib beriladi. Turizm, yevropa turizmi, turizm siyosati, turistik strategiya va taktika, "Benilyuks" turizmi, xalqaro turizm. Turizm mamlakatga valyuta kirish

imkoniyatlarini kengaytirib, yangi ishchi o'rinlarini yaratadi, infratuzilmani yaxshilab, mintaqa rivojiga va iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizmdan yuqori darajada foyda olish maqsadida har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlaridan biri bo'lgan turizm siyosatini ishlab chiqardi. Davlatning turizm siyosati bu ijtimoiy – iqtisodiy komplekslarni rivojlantirish va saqlab qolish konkret maqsadlarga erishish uchun turizm sohasining amal qilishida davlatning ta'sir yo'nalishlari, usullari va shakllari yig'indisidir.

5-mavzu: O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi (2 soat).

O'zbekistondagi qadimiy tarixiy va madaniy turistik ob'ektlar ahamiyati ko'rsatiladi. Butun dunyo turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha band aholining 8 foizi turizm uchun xizmat ko'rsatuvchi muassasalar ishchilari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, ishlab chiqarish va noislab chiqarish tarmoqlariga ajratilgan investitsiyalarning ham 7 foizi, umumiy iste'mol xarajatlarining 11 foizi turizm hissasiga to'g'ri keladi. O'zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy ma'naviy qarashlari xalq og'zaki ijodi orqali ajdoddan avlodlarga yetkazib kelingan. Bugungi kunga kelib, o'lka tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma'naviy merosi jahon jamoatchiligining diqqatini o'ziga tortmoqda. Respublikada "Sharq taronalari", "Boysun bahori" festivallarining "Navro'z" bayram sayllarining o'tkazilishi xorijlik sayyohlarning, shartshunos, etnograf olimlarining o'lka tarixi, madaniyatiga bo'lgan qiziqishini o'rtirmoqda.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. (16 soat)

Fan bo'yicha rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda asosiy e'tiborni geografik o'rgatishga qarantish lozim. Ma'lum sabablarga ko'ra ma'ruzaga kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish, kartani o'qish, tushinish va yozuvsiz karta bilan ishlash yo'llarini amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiq. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatlari talabalarida qiziqish uyg'otish;
- talabalarda natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlarda nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbavi hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Rekreatsiya geografiyasi fanining o'rganish maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti (2 soat).

Reja:

1. Rekreatsion geografiyaning predmeti.
2. Rekreatsion geografiyaning vazifalari.

3. Pekreationsi geografianing o'rganish ob'ekti.
4. Jizzax viloyati rekreationsiya mintaqalari va ulardan turistik maqsadlarda foydalanish masalalari.

2-mavzu: Rekreations faoliyatning klassifikatsiyasi. O'zbekistonda rekreationsiya resurslarining rivojlanishi (2 soat).

Reja:

1. Rekreations faoliyat tushunchasi.
 2. Rekreations faoliyat tarkibi va tasnifi.
 3. Rekreations hududlarining asosiy tiplari, asosiy turlari
 4. O'zbekistonda rekreationsiya resurslarining rivojlanishi.
- 3-mavzu: Turizm – tizimi o'rganish ob'ekti sifatida (2 soat).**

Reja:

1. Turizm haqida umumiy tushuncha.
 2. Turizm tizimi.
 3. Turizm turmushulot tushunchasi
 4. Turistik eksport, import.
- 4-mavzu: Turizm moxiyati. Turizm klassifikatsiyasi (2 soat).**

Reja:

1. Turizm sohasining tasniflanishi.
 2. Turistik xizmatlarning xususiyatlari.
 3. Turistik xizmatlarning ifodalanishi.
 4. Turizm klassifikatsiyasi.
- 5-mavzu: Xalqaro turizm geografiyasi, tarixi va rivojlanishi (2 soat).**

Reja:

1. Qadimgi (antik) davr turizmi.
2. Xalqaro turizmning boshlang'ich davri.
3. Xalqaro turizmning rivojlanish davri.
4. Xalqaro ommaviy turizmning yuksalish davri.

6-mavzu: Turistik talab geografiyasi. Turistik talabning hozirgi zamon yo'nalishlari. Milliy park va rezervasiyalar (2 soat).

Reja:

1. Turistik talab xususiyatlari.
 2. Turistik talab geografiyasi.
 3. Milliy park va rezervasiyalar.
 4. Alohida muhofaza etiladigan hududlar.
- 7-mavzu: Turizm siyosati asoslari. Yevropa mamlakatlarida xalqaro turizm geografiyasi (2 soat).**

Reja:

1. Davlat turizm siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
2. Turistik strategiya va taktika.
3. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmni rivojlanish yo'nalishlari.
4. Yevropaning "Benilyuks" iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi Belgiya.

Niderlandiya va Lyuksenburg mamlakatlarini turizmi.

8-mavzu: O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi (2 soat).

Reja:

1. Jahon turizmida O'zbekistonning tutgan o'limi.
2. Rekreationsiyaning rivojlanishida festivallar, ko'rgazmalar, xalq bayramlari va sportning ahamiyati.
3. Turizmning huquqi va majburiyatlari.
4. Turizmning irqi, millati, jinsi, tili, yoshi va dini.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soatlar (30 soat)
Mustaqil ta'lim – muayyan fan dan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida sinfdan tashqarida bajariladi.
Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars masha'gotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun y o'lanm a berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning m'lum bir qismini talaba tomonidai fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Turizm va rekreationsiya geografiyasi fanidan nazariy va amaliy masha'gotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lami ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarining mavzulari:

1. Rekreationsi geografiya asoslari faninin o'ekti va predmeti.
2. Rekreationsi faoliyatning klassifikatsiyasi.
3. Rekreationsi oqimlar statistikasi.

<ol style="list-style-type: none"> 4. Rekreatsiya geografiasining rivojlanish omillari. 5. Rekreatsiyani O'zbekistonda rivojlantirish. 6. Rekreatsiya geografiasining yangi yunalishlari. 7. Rekreatsiya asosiy tushunchalari. 8. Rekreatsiya industriyada joylashtirish va o'zlashtirish sektori. 9. Dunyodagi mexmonxonalar bazasining hozirgi xolati. 10. Rekreatsiya geografiasining asosiy tushunchalari. 11. Joylashtirish va o'zlashtirish sektori. 12. O'zbekistonda rekreatsiyani rivojlantirish. 13. Rekreatsiya faoliyat klassifikatsiyasi. 14. Xalqaro turistik tashkilotlar. 15. Jahon rekreatsiyasi geografiasini. 16. Rekreatsiya geografiasida statistikasini takomillashtirishning yunalishlari. 17. Rekreatsiya hisobga olish. 18. Dam olish va hordiq chiqarish. 19. Turizmda industriya tushunchasi. 20. Turizmda informatsion texnologiyalar Turizmda informatsion texnologiyalar. 21. Rekreatsiya bozorida muvozanat. 22. Turizmning asosiy tushunchalar. 23. Jahon turizm geografiasini. 24. Tarixiy madaniy turistik ob'ektlar. 25. Xalqaro turistik tashkilotlarning rekreatsiya rivojlanishidagi ahamiyati. 	<p style="text-align: center;">V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, Turizm va rekreatsiya geografiasining asosiy xususiyatlari, turizm turlari, tarmoqlari, rekreatsiya rivojlanishining aholi va iqtisodiyotdagi ulushi haqida tasavvurga ega bo'lishi; - Turizm va rekreatsiya geografiasini rivojlantirish hududiy chegaralarini aniqlay bilishni va xaritada tasvirlay bilishni, turizm, rekreatsiya asosiy turlarini qanday joylashganligini xaritada aniqlay bilishni, uning turli qismlarida iqlimni o'zga xos xususiyatlari sabablarini aniqlay bilishni, tabiiy resurslardan foydalanish sabablarini tushuntirib bera olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. - Turizm va rekreatsiya obyektlarini joylashishidagi asosiy qonuniyatlar sabablarini aniqlashni, iqtisodiyotga ta'sirini, asosiy tarmoqlarini hududlar bo'yicha tarqalishini, joylashishini tushuntirib bera olishni, har bir Davlatning tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlarini turistik va rekreatsiya jihatlari aniqlay olish va baholash malakalariga ega bo'lishi kerak. <p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>Talabalarni "Turizm va rekreatsiya geografiasini" fanini chuqur o'zlashtirishlari uchun ilg'or zamonaviy pedagogik va axborot</p>
<p>texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi. Fanni chuqur o'zlashtirishda ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, tarqatma materiallar, kartalar bilan bir qatorda yangi statistik ma'lumotlar, aholi va unga xos hamda aholining tabiiy ko'payish, dunyo dimlarining geografik tarqalishi, O'zbekistonda aholi siyosatining asosiy yo'nalishlari jarayonlarni ko'rsatuvchi video filmlar, slaydlar ham katta yordam beradi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda zaruriy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.</p> <p>"Turizm va rekreatsiya geografiasini" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:</p> <p>Shaxsga yo'naltilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.</p> <p>Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiasini tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyli, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.</p> <p>Faoliyatga yo'naltilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltilgan ta'limni ifodalaydi.</p> <p>Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.</p> <p>Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.</p> <p>Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama - qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.</p> <p>Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.</p> <p>O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradox va loyihalash usullari, amaliy ishlar.</p> <p>O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.</p> <p>O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.</p> <p>Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga</p>	<p style="text-align: center;">3.</p>
	<p style="text-align: center;">4.</p>

<p>asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.</p> <p>Testkari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, bits – so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostika.</p> <p>Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rimidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.</p> <p>Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>
<p>6.</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Александров А.Ю. “Международный туризм” Учебник. М. Аспект пресс 2002. 2. О.Ш. Ismailov Turizm biznesi va menejmenti O'quv qo'llanma Toshkent, 2011. 3. Aliyeva M. va boshqalar. “Xalqaro turizm” Toshkent”. 2011. 4. M.R.Usmonov “Turizm geografiyasi” O'quv qo'llanma. Samarqand - SamDU - 2019 yil. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 	

<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.</p> <ol style="list-style-type: none"> 2. Mirziyoyev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T., “O'zbekiston”, 2017. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 16-avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida. 4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligini va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston”, 2017. 5. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I., O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T.: “O'qituvchi” 1994. 6. Amanov M., Abduraxmonov A. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, Qoraqalpog'iston. T., 1995. 7. Jahon mamlakatlari uchun atlas. 8. To'xilev N., va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” T.: 2006. 9. Rodrigue, J-P (ed). The Geography of Transport Systems. UK, London. Third Edition, Routledge. 416 pages. ISBN: 978-0-415-82254-1 	<p>Elektron ta'lim resurslari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyounet.uz/ru/library/book/6767/lbid/70110 2. www.nuu.uz/faculties/economy/index.php?lk=mi_kaf&ln=en 3. www.connect.uz/forum/index.php?showtopic=256&st=165 4. www.gov.uz/uz/content.scm?contentId=13040 <p>7. Fan dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti o'quv – uslubiy kengashining 2022 yil 30-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>8. Fan uchun ma'sul: M.R. Usmanov – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini o'qituvchisi.</p> <p>9. Taqrizchilar: Hakimov Q.M. - JDPU Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini professor v.b., geografiya fanlari nomzodi. M.R. Usmonov - SamDU Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya kafedrasini dotsenti. g.f.n.</p>
--	---